

**Shovdirov Toxirmalik Nafasovich**  
**TDSHI “Yaqin Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti”**  
**Kafedrasi o’qituvchisi**

## **JAHON XO‘JALIGI TIZIMIDA XALQARO MEHNAT MIGRATSIYASINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI TAHLILI**

**Annotatsiya.** *Ma’lumki hozirgi global iqtisodiy qiyinchiliklar sabab, dunyo mamlakatlari oldida ishsizlik muammolarini bartaraf etish masalasi yuzaga chiqishi tabiiy, hozirda ko’plab kompaniyalarning inqirozga yuz tutayotgan bir paytda, nafaqat rivojlanayotgan mintaqalar balki yirik iqtisodiyotga ega bo’lgan mamlakatlarning ham asosiy hal qilinishi lozim bo’lgan masalalariga aylanadi. Ushbu maqolada xalqaro mehnat migratsiyaning dunyo mamlakatlari bo’yicha 30 yillik tahlili qisqacha bayon e’tilgan va tegishli xulosalar berilgan.*

**Tayanch so’zlar.** *Migratsiya, Immigratsiya, Emigratsiya, “Arab bahori”, ishsizlik darajasi, donor mamlakatlar, ritsipiyent mamlakatlar, demografik nazariya, sintetik nazariya, migratsiyaning ekonometrik modeli, migratsiyaning o’rin bosish funksiyasi.*

### **KIRISH**

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda jahon xo‘jaligining sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarilganligi bilan xarakterlanadi, iqtisodiyotning globallashuvi ko’p soha-tarmoqlarni qamrab olganligi sababli mehnat bozorida katta o’zgarishlar yuz bermoqda va shu sababdan ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlari yangicha namoyon bo’lmoqda, shu boisdan ham bu muammoni tadqiq qilish muhim va dolzarb hisoblanadi.

So’nggi yillarda ishchi kuchi migratsiyasining faol harakati global mehnat bozorini yuzaga keltirdi, hozirda dunyo mamlakatlari aholi soni ortib bormoqda, iqtisodiyotda resurslar cheklanganligini hisobga olsak, ishsizlar soni ortib kambag’allik darajasi yanada o’sib borishi tabiiy, ana shunday sharoitda, mamlakatlar mutaxassislari oldida aholini ijtimoiy himoyalash va ularni munosib ish o’rinlari bilan ta’minlash masalasi kun tartibiga chiqadi. Hozirda dunyo aholisini munosib ish bilan ta’minlash va barqaror iqtisodiy hayot kechirishi uchun, nafaqat mamlakatlar guruhi balki, bu sohadagi muammolar, qonun hujjatlari va xalqaro konvensiyalarni tayyorlashda Birlashgan millatlar tashkilotining aholi nufusi bo’yicha komissiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Xalqaro migratsiya tashkiloti kabi umumjahon tashkilotlari jiddiy ko’mak ko’rsatmoqdalar.

Hozirda xalqaro muhojirlarning huquqlarini munosib himoya qilish, ularni ish faoliyatini to’g’ri tashkil etish, o’qitish va kasbga tayyorlash bo’yicha qator davlat va nodavlat tashkilotlari milliy va xalqaro miqyosda faoliyat olib bormoqda, ana shunday say harakatlarning olib borilishi natijasida dunyo mehnat bozorini bir maromda ushlab turushga mamlakatlar qisman darajada erishayotgan bo’lsada, yaqin kelajakda dunyo iqtisodiyotida global pasayish va kompaniyalarning inqirozga yuz tutishi sabab, xalqaro mehnat bozorida 25 million ish o’rni yo’qotilishi haqida mutaxassislar tahmin qilmoqda, ana shunday sharoitda, hozirda dunyo mamlakatlarida turli sohalarda kunlik va mahsumiy ishlarda mehnat qilayotgan muhojirlarning ishsiz qolishi ehtimoli juda yuqori bo’lib qolmoqda. Ushbu maqola, BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti va bir qator mamlakatlarning migratsiya bilan shug’ullanuvchi agentliklari xulosalari asosida yozildi va hozirgi paytdagi zamonaviy tendensiyalariga baho berildi.

### **Tahlil va natijalar**

Mutaxassislar aholining kam daromadli va kambag’al qismining iqtisodiy farovonligini ko’tarish va uning yechimlarini topish, vaqtincha ijtimoiy himoyalash uchun ishchi kuchi migratsiyasini bitta faktor biri sifatida qarashadi. Hozirda ko’plab rivojlanayotgan mamlakatlarning migrantlari o’z mamlakati YaIM.iga sezilarli darajada hissa qo’shib kelmoqda.

Hozirda jahon xo’jaligi tizimida mehnat muhojirlarining soni ortib bormoqda, 2019 yil yakunlariga ko’ra, qariyb 272 millionga yetdi, ularning qariyb 56 foizi rivojlangan mamlakatlar fuqoralari xissasiga to’g’ri keladi, qolgan 44 foizi esa o’rta va kam rivojlanayotgan mamlakatlar muhojirlaridir.

Dunyo bo’yicha barcha xalqaro muhojirlarning 65 foizi yuqori daromadli mamlakatlarda mehnat qilgan bo’lsa, qolgan 30 foizi o’rta rivojlanayotgan mamlakatlarda 5 foizi esa, kam daromadli mamlakatlarda ishlagan.

Xalqaro mehnat muhojirlarining bir hududdan ikkinchi hududga qilgan migratsiyasini 1990 va 2019 yillar oralig’idagi statistikasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ularning soni o’tgan 29 yilda 119 million, kishiga ko’paygan ushbu o’sish 2005 yildan boshlab sezilarli darajada oshib borgan, xalqaro muhojirlar soni 1990-2005 yillarda 39 million kishiga ko’payib, 153 milliondan 192 million kishiga yetgan. 2005 va 2019 yillar oralig’ida qariyb 80 million kishiga ko’paygan. Ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda, shunday xulosalarga kelishimiz mumkinki, dastlabki 15 yilda migrantlar soni 39 million kishiga, keyingi 14 yillik davr mobaynida esa 80 million kishiga ko’payganini ko’rishimiz mumkin. Agar biz migratsiya harakatining tarixiy omillarini o’rganadigan bo’lsak, amaliyotda xalqaro mehnat migratsiyasi avvaliga stixiyali vujudga keladi, ammo keyinchalik uni davlat

o‘z boshqaruviga oladi. Shu bilan birga XXI asrda xalqaro mehnat migratsiyasida bozor stixiyasi elementi sezilarli miqdorda saqlanib qolmoqda.

*1-jadval*

**Migratsiya geografik oqimi yo‘nalishlarining o‘zgarishi.**

Oqim	Davr	Migratsiya oqimining yo‘nalishi	Sabablari
1.	<b>1920 yillar</b>	Yevropadan AQShga migratsiyaning yangi oqimi	<b>Iqtisodiy</b>
	<b>1940yillar</b>	«kartoshka ochligi» natijasidaIrlandiyadan AQShga migratsiya portlashi ro‘y berdi	<b>Iqtisodiy</b>
2.	<b>1950 yillar</b>	«aqlarning oqib ketishi», ya’ni yuqori malakali mutaxassislar va ularning oilalarining Shimoliy Amerikaga ketishi	<b>Iqtisodiy</b>
	<b>1956 yil</b>	antikommunistik qo‘zg‘olon bostirilganidan keyin Vengriyadan	<b>Siyosiy</b>
	<b>1974–75 yillar</b>	«shimolliklarning» «janubliklar» ustidan g‘alaba qozonganidan so‘ng Vetnamdan	<b>Siyosiy</b>
	<b>1980 yil</b>	Kubadan	<b>Siyosiy</b>
3.	<b>1980 yillar o‘rtasi</b>	eng katta ishchi kuchi oqimi Meksika va Karib havzasi davlatlaridan	<b>Iqtisodiy</b>
	<b>1980yillar oxiri</b>	Migratsiya oqimi AQShdagi iqtisodiy kon’yunkturaning keskin yomonlashuvi oqibatida sekinlashdi va iqtisodiy jonlanish paytida yana kuchga kirdi	<b>iqtisodiy</b> Italiya va Sharqiy Yevropadan AQShga keng miqyosdagi migratsiyaning sababi yevropa bug‘doyining narxi tushib ketishida edi
4	<b>1990 yillar o‘rtalari va 2000 yillarning boshlari</b>	Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi va ko‘pgina davlatlarning mustaqillikka erishuvi oqibatida rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga migratsiya oqimi sezilarli ravishda kuchaydi	<b>iqtisodiy va siyosiy</b>
5	<b>2000-2019 yillar<sup>1</sup></b>	Bozor iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida, mamlakatlar o‘rtasida turli xil iqtisodiy sanksiyalarning joriy etilishi, diniy, siyosiy masalalarning chuqurlashuvi sabab, Suriya, Venusuela, Myanma, Janubiy Sudan kabi mamlakatlarning yaqin qo‘shni mamlakatlarga muhojirlarning oqimi.	<b>iqtisodiy va siyosiy</b>

**Manba:**D.V.Rasulova.Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. Monografiya:. –T., 2010.

Yevropadan AQShga migratsiyaning yangi oqimi XX asrning 20-yillarda kuzatildi. XIX asrning o‘rtasida zamonaviy aholi migratsiyasi tarixida eng muhim holat kuzatildi. XIX asrning 40-yillarida «kartoshka ochligi» natijasida Irlandiyadan AQShga migratsiya portlashi ro‘y berdi (1.1-jadval).

<sup>1</sup>Xalqaro migratsiyaning global harakati va tendensiyalari tahlili asosida, muallif tomonidan kiritildi.

Migratsiya oqimi AQShdagi iqtisodiy konyunkturaning keskin yomonlashuvi oqibatida sekinlashdi va iqtisodiy jonlanish bosqichida yana kuchga kirdi. Ayrim yevropa davlatlaridagi agrar sohada aholining ortiqchaligi, ishsizlik, AQShda mehnat sharoitlarining yaxshiroqligi va albatta, shaxsiy biznes yuritish imkoniyatlarining kattaligi, turmush darajasining oʻsishi ishchi kuchining keng miqyosdagi migratsiyasiga sabab boʻldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin AQShga ishchi kuchi migratsiyasining uchta oqimi vujudga keldi. Birinchidan, bu «aqlarning oqib ketishi», yaʼni yuqori malakali mutaxassislar va ularning oilalarining Shimoliy Amerikaga ketishi. Bunga yevropada urushdan keyin aholining turmush darajasining pasayganligini ham qoʻshish mumkin.

Ikkinchidan, antikommunistik qoʻzgʻolon bostirilganidan keyin Vengriyadan (1956 yil) va «shimolliklarning» «janubliklar» ustidan gʻalaba qozonganidan soʻng Vetnamdan (1974–75 yillar) hamda Kubadan (1980 yil) qochqinlar oqimi. Uchinchidan, bu davrdagi eng katta ishchi kuchi oqimi Meksika va Karib havzasi davlatlaridan edi. Agar birinchi va oxirgisining sababi iqtisodiy boʻlsa, ikkinchi oqimning sababi siyosiy edi. Meksikadan migratsiya qilishni istovchilar soni AQShda qoʻshimcha ishchilarga boʻlgan talab bilan mos tushadi<sup>2</sup>.

AQShga 60-yillarda boshlangan migratsiya oqimi 2000 yillargacha oʻsish tendensiyasiga ega boʻldi. Umuman Gʻarbiy Yevropa mamlakatlariga AQShga nisbatan 80-yillargacha migratsiya oqimi koʻpaydi va bu holat 85-yillarda kamaydi. Bunga esa turli omillar sabab boʻldi. Emigratsiya ishchi kuchi ortiqchaligi kuzatilayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi, ularning chet elga ish axtarib chiqib ketishlari oqibatida mamlakatlarida ishsizlik miqyosi qisqaradi. XX asrning 70-yillarida Misr hukumati Fors Koʻrfazi mamlakatlariga emigratsiya qilganlarni maxsus ragʻbatlantirish boʻyicha ishsizlikka qarshi kurash dasturini qabul qildi.

«Aqlli odamlarning chiqib ketishi» koʻpgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, ayniqsa, Afrika mamlakatlari uchun (Malavi, Sudan, Zoir, Zambiya,) jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammoga aylangan. Bu «chiqib ketish» mamlakatda iqtisodiy ahvol yaxshilangan taqdirdagina qisqaradi. Misol uchun, uzoq vaqt Silikon vodiysida texnologik jihatdan yuqori boʻlgan Amerika korporatsiyalarida ishlagan hind olimlari oʻz vatanlariga qaytganlaridan soʻng, yangi kompyuter dasturlarini yaratish boʻyicha Hindiston kompyuter texnologiyasi sanoati taraqqiyotining asoschilari boʻlishdi.

*2- jadval*

### **Xalqaro muhojirlarning daromadlar guruhi boʻyicha, mintaqalarda joylashishi, soni va ulushi**

---

<sup>2</sup> Назарова Г.Г. Халқаро иқтисодий муносабатлар / Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2005. – В. 220.


	Xalqaro migrantlar zahirasi (mln kishi )				O’rtacha yillik o’sish ko’rsatagichi (foizda)			Xalqaro muhojirlarning umumiy ulushi (foizda)	
	1990	2000	2010	2019	1990- 2005	2005- 2019	2000- 2019	1990	2019
<b>Dunyo bo’yicha</b>	153.0	173.6	220.8	271.6	1.5	2.5	2.4	2.9	3.5
<b>BMT.ning rivojlanish guruhlari</b>									
Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar guruhi	82.8	104.0	130.6	152.1	2.3	1.9	2.0	7.2	12.0
Kam rivojlangan hududlar	70.2	69.6	90.2	119.6	0.4	3.3	2.8	1.7	1.9
<b>Jahon bankining daromad guruhlari</b>									
Yuqori daromadli davlatlar	77.8	103.0	144.3	175.8	2.9	2.7	2.8	7.5	14.0
O’rta daromadli davlatlar	65.0	61.0	65.9	82.1	-0.4	2.1	1.6	1.7	1.4
Past daromadli davlatlar	9.8	9.0	10.0	13.1	-0.6	2.7	2.0	2.8	1.7
<b>Mintaqalar</b>									
G’arbiy Sahro Afrika hududi	13.3	13.2	15.9	23.6	0.5	3.6	3.1	2.7	2.2
Shimoliy Afrika va G’arbiy Sahro	17.6	20.3	32.6	48.6	1.9	5.3	4.6	6.1	9.4
Markaziy va Janubiy Osiyo	26.2	20.5	19.6	19.6	-2.1	0.2	-0.2	2.1	1.0
Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo	6.8	10.5	15.7	18.3	4.3	2.5	2.9	0.4	0.8
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	7.2	6.6	8.3	11.7	0.1	3.4	3.0	1.6	1.8
Okean hududi (Okeaniya)	4.7	5.4	7.1	8.9	1.6	2.8	2.7	17.3	21.2
Yevropa	49.6	59.9	70.7	82.3	1.7	1.8	1.9	6.9	11.0
Shimoliy Amerika	27.6	40.4	51.0	58.6	3.3	1.8	2.0	9.9	16.0

**Manba:** International migration report. United Nations, New York 2019.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, (2- jadval) xorijda ishlash va yashashga chiqib ketayotganlarning maqomi turlichadir, masalan, doimiy yashashga, vaqtincha ishlashga rasmiy va norasmiy doirada chiqayotganlarga bo’linadi. Migratsiya masalalariga oid jahon tajribasini o’rganish jarayonidagi kuzatuv va to’plangan tahlil ma’lumotlarining ba’zi davlatlar, masalan, Buyuk Britaniya bo’yicha olinganlari ko’radigan bo’lsak, migratsiya ijtimoiy holat, ish haqi o’rtasidagi tafovutlarni qisqartirishda katta rol o’ynamaydi. Mehnat bozorlari segmentlashtirilgan bo’lib, tartibga solinadi, demak, migratsiya ish haqini va ishsizlikni yaqinlashtirish omillarining biri sifatidagina amal qiladi. U mamlakat oldidagi iqtisodiy muammolarni hal eta olmaydi shu boisdan ham migratsiyani ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni vaqtinchalik hal etuvchi jarayon sifatida qarashimiz maqsadga muvofiq.

Xalqaro mehnat migratsiyasi harakati 1990 va 2005 yillarda 1,5 foizga o’sgan bo’lsa, 2005 va 2019 yillar orasida 2,5 foizga yetgan. Xalqaro muhojirlarning 69 millioni rivojlangan mamlakatlar hissasiga to’g’ri kelsa, kam rivojlangan mamlakatlarda esa 50 million kishini tashkil etmoqda. Xalqaro muhojirlarning eng ko’pi ya’ni 98 millioni yuqori daromadli mamlakatlarda mehnat qilmoqda, O’rta

daromadli va kambag'al mamlakatlarda mos ravishda 17 va 3 million kishi mehnat qilgan umumiy soni esa 20 mln. kishini tashkil e'tmoqda.



1-rasm. (Mintaqalar bo'yicha xalqaro muhojirlar soni 1990-2019 yillar<sup>3</sup>)

Xalqaro migrantlar sonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati rivojlanish va daromad guruhlariga bo'yicha farq qiladi. Rivojlanishning o'rtacha yillik sur'ati 1990 yildan, 2005 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida, 2,3 foizdan, 2005 va 2019 yillar oralig'ida 1,9 foizga pasaygan bo'lsada, kam rivojlangan hududlarda ushbu davrda 0,4 foizdan, 3,3 foizga oshdi, Xuddi shunday o'rtacha yillik o'zgarish sur'ati 1990 va 2005 yillar oralig'idagi 2,9 foizdan, 2005 va 2019 yillar oralig'ida 2,7 foizga tushdi. Shu vaqt ichida o'rtacha daromadli mamlakatlarda o'zgarish sur'ati, -0,4 foizdan, 2 foizgacha va past daromadli mamlakatlarda, -0,6 foizdan, 2,7 foizgacha ko'tarildi.

Xalqaro muhojirlar 2019 yilda jahon aholisining nisbatan kam qismini, ya'ni 3,5 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 1990 yilda 2,9 foiz atrofida edi, (1-rasm) ma'lumotlaridan ko'rib turibmizki, muhojirlar soni 1990 va 2019 yillar orasida 0,6 foizga o'sgan. Tahlil qilinayotgan 29 yillik davr mobaynida migrantlarning dunyo mamlakatlarida mehnat qilishga bo'lgan harakati barcha mintaqalarda bir maromda kechgan ya'ni yillar davomida o'sish tendensiyaga ega faqatgina, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 1990 yilda 2019 yilga nisbatan migrantlarning bir hududdan, ikkinchi hududga oqimi 28 million kishini tashkil etgan, 2019 yilda bu mintaqaning xorijda mehnat qilayotgan muhojirlari 21 million atrofida, qariyb 30 yilda migrantlar 7 million kishiga kamaygan,

Migrantlarning keyingi keskin oqimi, Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo mintaqasida kuzatilmoqda, 2010 yildan 2015 yilgacha ushbu mintaqada muhojirlarining boshqa hududlarga oqib o'tishi keskin ko'tarilgan buni mutaxassislar Shimoliy Afrikada mamlakatlaridagi "Arab bahori" voqealari va Yaqin Sharqdagi siyosiy

<sup>3</sup>International migration report. United Nations, New York 2019.



vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy-siyosiy vaziyatning tangligi bilan baholansa, aksincha Yaqin Sharqning Fors ko’rfazi mamlakatlarida iqtisodiy o’sish sabab migrantlar kirib kelishi mintaqada 1990 va 2019 yillar oralig’ida o’rtacha yillik o’sish su’rati 4,6 foizni tashkil qilgan.

Xalqaro migrantlar 2019 yilda rivojlangan mintaqalar aholisining 12,0 foizini tashkil qildi, kam rivojlangan hududlarda jami aholining 1,9 foizigacha, yuqori daromadli mamlakatlarda xalqaro muhojirlar umumiy aholining 14,0 foizini tashkil etdi.

Bu ko’rsatgich o’rtacha daromadli va kam daromadli mamlakatlarda sezilarli darajada past bo’lib, xalqaro migrantlar jami aholining mos ravishda 1,4 va 1,7 foizini tashkil etdi. 1990 yildan 2019 yilgacha xalqaro migrantlar soni rivojlangan mintaqalar va yuqori daromadli mamlakatlarda ko’paydi, ammo o’rta daromadli mamlakatlarda o’sish yuqori emas, past daromadli mamlakatlarda esa kamayish tendensiyasiga ega.

Xalqaro migrantlarning joylashuv statistikasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, (1-rasm) dunyo bo’yicha xalqaro migrantlarning yarmidan ko’prog’i Yevropa va Shimoliy Amerikada yashagan, ularning 80 milliondan ortig’i Yevropada va 60 milliondan ortiq migrant esa, Shimoliy Amerikada mehnat qilmoqda, ushbu hududda ishlayotgan migrantlarning katta qismi AQSh xissasiga to’g’ri keladi.

Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyo mintaqasi migrantlarning ko’pligi bo’yicha uchinchi mintaqahisoblanadi, bu mintaqada hozirda 50 millionga yaqin xorijlik migrantlar mehnat qilmoqda, bu mintaqaqariyb migrantlarning 50 foizi Fors ko’rfazining 6 ta arab mamlakatlaridamavjud, keyingi mintaqalar Sahroi Kabir va Afrika hududlarida 24 million xorijlik migrant mavjud bo’lsa, Lotin Amerikasi va Karib dengizi qirg’oqlari mamlakatlarida 12 million va Okeaniya hududlarida 9 milliondan ortiq muhojirlar mehnat qilmoqda.

1990 va 2019 yillardagi davr oralig’ini tahlil qiladigan bo’lsak, ushbu davrda xalqaro migrantlar soni Yevropa, Shimoliy Amerika, Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyo kabi mintaqalarning har birida migrantlar soni qariyb 30 million kishigako’paydi. Biroq, oxirgi mintaqada xalqaro muhojirlar sonining eng katta nisbiy o’sishi kuzatildi. Yevropa va Shimoliy Amerikada muhojirlarning o’rtacha yillik su’rati o’rta darajada o’sib 2 foizni tashkil etmoqda. Janubiy Sharqiy Osiyo, Afrika va Sahroi Kabir hududlariga 10 millionga yaqin Xalqaro muhojirlar kelib qo’shilgan bo’lsa, Lotin Amerikasi, Karib havzasi va Okeaniyaga 4 milliondan ortiq Xalqaro migrantlar kirib kelgan. Ushbu to’rtta mintaqada migrantlar sonining yillik o’zgarishi 3 foiz atrofida saqlanib qoldi.

Yuqorida tahlil qilgan mintaqalarimizning barchasida 1990 va 2019 yillar oralig’ida migrantlar sonining oshib borishini kuzatishimiz mumkin, lekin aksincha Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro muhojirlar soni 7 million kishiga

kamaygan, bu oʻrtacha yillik oʻzgarish suʼrati -0,2 foizni tashkil etadi. Bunday tendensiyaning yuzaga kelishini biz ikki omil sifatida koʻrishimiz mumkin.

Birinchi omil -1990 yillarda katta miqdorda migrantlarning boshqa hududlarga chiqib ketishi bu (SSSR) sobiq ittifoqning parchalanishi taʼsir qilgan deyishimiz mumkin, sababi 1990 va 1995 yillar oraligʻida Markaziy Osiyo mamlakatlaridan hozirgi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi) fuqoralarining oʻzvatnlariga koʻchib ketishi, yoki aksincha u yerdagi aksariyat aholining Markaziy Osiyo mamlakatlari hududlariga kelishi bilan baholashimiz mumkin.


Ikkinchi omil – sifatida esa, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining sekin sekin oʻsishi, aholi sonining tez koʻpayishi sababli ishsizlik ortib, natijada MO mamlakatlari mehnatga yaroqli aholisining Rossiya Federatsiyasi va Turkiya kabi mamlakatlarga mehnat qilish uchun chiqib ketganligi, JO mintaqasining Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Shri-Lanka kabi mamlakat fuqoralarining 1990 yillardan buyon jahon xoʻjaligi tizimida, iqtisodiyoti tez suʼratlarda oʻsib borayotgan Fors koʻrfazi mamlakatlari, shuningdek Yevropa va AQSh hududlariga ishlash uchun chiqib ketishi natijasida bu hududlarning iqtisodiyot subyektlarida mehnatga yaroqli aholining ortiqcha ekanligi va oylik maoshlarning kamligi sabab, migrantlarning kirib kelishi kam kechganligini kuzatishimiz mumkin.

Xalqaro muhojirlar sonining oʻrtacha yillik oʻzgarishi mintaqalar boʻyicha yillar davomida oʻzgarib turdi, Shimoliy Afrika, Gʻarbiy Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerikada 2000-2010 va 2000-2019 yillarda migrantlar soni yiliga 1 milliondan oshib bordi. Migrantlarning aholi soniga nisbatan tez oʻsib borishi Shimoliy Afrika va Gʻarbiy Osiyo mamlakatlarida kuzatildi, bu mintaqada yuqorida tahlil qilinayotgan davr mobaynida, bu hududlarda muhojirlar soni 1,8 milliontaga koʻpayib borgan. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida esa 1990-2000 yillar oraligʻida migrantlar taxminan 0,6 mln, kishiga kamaygan.

Hozirgi paytda dunyoning eng katta 5 ta mintaqaviy migratsiya yoʻlaklari, xalqaro migrantlarning deyarli yarmini tashkil etib, 124 million kishiga yetgan. Xalqaro migrantlarning eng katta koridori, Yevropa mamlakatlariga toʻgʻri keladi, maʼlumki hozirda yevropa mamlakatlarining aksariyati demografik qarish jarayonini boshdan kechirmoqda, hozirda ushbu mintaqada mamlakatlarida 1990-2019 yillar davomida 41,9 million chaqoloq xalqaro muhojirlarning farzandlari ekanligini hisobga olsak, Hozirda yuqori iqtisodiy oʻsishga erishayotgan, Yevropa mamlakatlari iqtisodiyot oldidagi koʻplab ish oʻrinlarini kelajakda, xalqaro muhojirlar hisobiga toʻldirib borishadi. 2000 yildan, 2019 yilgacha Yevropadan, Yevropa mamlakatlari hududlariga ushbu tahlil qilinayotgan davrlar mobaynida har 10 yilda 5 milliondan ortiq muhojirlar koʻpayib borgan. Oʻrtacha yillik oʻsish yarim milliondan oshib borgan (2-rasm) bundan koʻrinib turibdiki, Yevropadan, Yevropaga muhojirlar soni



o’sishi bir maromda kechgan, bu muhojirlar asosan yuqori malakali ishlarda faoliyat yuritgan.



**2-rasm. Xalqaro muhojirlarning hududlar kesimida joylashishi, 1990-2019 yillar<sup>4</sup>.**

Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlaridan Shimoliy Amerika hududlariga migratsiyaning harakati yillar davomida pasayish tendensiyasiga ega, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlaridan Shimoliy Amerika hududlariga 1990-2000 yillarda, 85,5 million muhojirlar mavsumiy ravishda Shimoliy Amerika hududlarida mehnat qilgan, keyingi yillarda bu tendensiya tushib bordi. 2000-2010 yillarda ushbu mintaqa mamlakatlari, mehnatga yaroqli migrantlari soni 54 million kishini tashkil etgan, va yiliga 0,9 million muhojirga ko’payib borgan. 2010 yildan 2019 yillar davri oralig’ida oldingi yillarga nisbatan, Shimoliy Amerika hududlarida mehnat qiluvchilar qariyb 10 yilda 27 million kishiga kamaygan.

Ushbu mintaqa mamlakatlari muhojirlarining Shimoliy Amerika mamlakatlarida mehnat qilishining kamayib borishini, ushbu omil bilan baholashimiz mumkin, Lotin Amerikasi va Karib havzasining mintaqasi mamlakatlarida yillar davomida iqtisodiy o’sish yuqorilab, aholi farovonligi oshib borgan, masalan mintaqaning jami 12 mamlakatida iqtisodiy o’sishni kuzatishimiz mumkin, masalan, Lotin Amerikasida joylashgan Panamada aholi jon boshiga YaIM ko’rsatgichi 20

<sup>4</sup>International migration report. United Nations, New York 2019.

ming AQSh dollarini tashkil etsa, Meksika<sup>5</sup>da 17,5 AQSh dollariga teng, Kostarikada 15 ming AQSh dollari, mintaqaning eng kam rivojlangan hududi Gonduras 4500 AQSh dollari, Guatemalada esa kishi boshiga YaIM ko’rsatgichi 7500 AQSh dollarini tashkil etadi. Karib havzasi mamlakatlarining jami to’rtta mamlakatning uchtasida Antigua va Barbuda, Barbados va Baham orollaridakishi boshiga YaIM ko’rsatgichi o’rtacha 18,500 AQSh dollarini tashkil etmoqda, Kuba bo’yicha ma’lumotlar mavjud emas. Ushbu tahlil qilinayotgan mintaqada mamlakatlarida iqtisodiyotning o’sib borishi sabab, Shimoliy Amerika mamlakatlariga muhojirlar soni kamayib borgan.

AQSh Shimoliy Amerikada dunyo mintaqalaridan, eng ko’p migrantlarni qabul qilayotgan mamlakat sifatida qariyb 15 yildan buyon yetakchi hisoblanadi, bu albatta AQShning yirik iqtisodiyoti bilan bog’liq. Oxirgi yillarda prezident D. Tramp tashqi migratsiyaga qator taqiqlarni joriy qilayotgan bo’lsada, AQSh iqtisodiyotida migrantlar ulushi va ular jo’natayotgan pul mablag’lari yuqoriligicha qolmoqda. Buni birgina AQShga eng yaqin qo’shni bo’lgan, Meksikada ko’rishimiz mumkin, Meksikalik migrantlar 2015 yilda 26.23 mlrd. AQSh dollariga teng mablag’larni o’z vatanlariga jo’natgan bo’lsa, 2018 yilga kelib bu ko’rsatgich 33.83 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan, 2015yilda AQSh.dan, chiqib ketgan pul mablag’lari umumiy miqdori 61.86 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan, aynan shu yili Meksika Tashqi mamlakatlardan 26.23 mlrd. AQSh dollarini qabul qilgan, o’rtada qoldiq so’mma 35.63 mlrd. AQSh dollarini tashkil etmoqda, 2018 yilda esa Meksikaga xorijdagi migrantlari hisobidan 36.66 mlrd. AQSh dollariga teng mablag’lar kirib kelgan, AQSh.dan esa aynan shu yili 67.96 mlrd. AQSh dollariga teng mablag’lar migrantlar tomonidan o’z vatanlariga jo’natilgan, AQSh. dan chiqib ketgan va Meksikaga kirib kelgan pul mablag’i o’rtasidagi jo’natilgan mablag’ning qoldig’i 31.3 mlrd. AQSh dollarini ko’rsatmoqda.

Meksikalik ishchilarning aksariyat qismini AQSh.da mehnat qilishini hisobga olsak, prezident D. Trampning migratsiyaga qarshi siyosati Meksikalik migrantlar faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir qilib, qo’shma shtatlarda Meksikaliklar soni kamayib borayotgan bo’lsada, ammo ular jo’natayotgan pul mablag’lari oxirgi yillarda o’zgarishsiz qolmoqda.

Xalqaro migrantlarni qabul qiluvchi uchunchi mintaqaviy yo’lak, Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyo mamlakatlari o’rtasidagi o’zaro migratsiya harakati yillar davomida o’sish tendensiyasiga ega, 1990-2000 yillarda mamlakatlar ichida o’zaro migrantlar harakati 10 yilda 16 million kishini tashkil etgan bo’lib, 2000 yildan keyin esa xalqaro muhojirlar mutloq sonining ortishi Osiyo qit’asida kuzatilmoqda, mintaqada, 2000-2010 yillarda bu o’sish, 36,6 million kishini tashkil etgan, xalqaro

---

<sup>5</sup> Xalqaro mehnat tashkiloti 130 millionga ega bo’lgan Meksikani Lotin Amerikasi mintaqasi mamlakatlariga qo’shib hisoblamogda, lekin ayrim adabiyotlarda Meksika Shimoliy Amerika mintaqasi sifatida qaraladi.


muhojirlarning mintaqada o’sib borishini biz yirik neft eksport qiluvchi Fors ko’rfazi mamlakatlarida kuzatishimiz mumkin, Shimoliy Afrika va qo’shni mamlakatlardan Fors ko’rfaziga ko’plab muhojirlarning kirib kelishi ortib bormoqda, 2010-2019 yillarda bu ikki yirik mintaqada muhojirlar aylanmasi 80 million kishiga yetdi, muhojirlar harakati mintaqada mavsumiy davrlarda kirib, chiqib ketishlar soni ko’payib, bunga Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat, 2012 yildagi Shimoliy Afrika mintaqasi mamlakatlarida sodir bo’lgan “Arab bahori” voqealari ham katta ta’sirini o’tkazgan.

To’rtinchi xalqaro migratsiya yo’lagi Markaziy va Janubiy Osiyo hududlaridan, Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyo mamlakatlari tomon harakati hisoblanadi. yuqorida uchinchi yirik koridor sifatida tahlil qilganimiz Fors ko’rfazi mamlakatlari bilan bir qatorda Turkiya Respublikasi ham xalqaro muhojirlarni qabul qiluvchi yirik mintaqaga aylanib bormoqda, oxirgi yillarda Turkiyaga qo’shni Suriya, Afg’oniston va Markaziy Osiyo mamlakatlaridan muhojirlar oqimi ko’paymoqda. Janubiy Osiyo mamlakatlari muhojirlarining oqimi asosan, Fors ko’rfazi mintaqasi tomon yo’naltirilmoqda. To’rtinchi xalqaro migratsiyasi koridorining ikki yirik mintaqasi mamlakatlari o’rtasida migratsiya aylanmasi 1990-2000 yillarda 12 million kishini tashkil etgan bo’lsa, 2000-2010 yillarda 66 million, 2010-2019 yillarga kelib 64,5 kishi tashkil etgan.

Xalqaro muhojirlarning so’nggi beshinchi yo’lagini, Sahroi Kabir va Afrika hududlari mamlakatlarining o’zaro migratsiya almashinuvi sifatida ko’rishimiz mumkin, bu mintaqasi mamlakatlaridan, 1990-2000 yillarda 400 ming aholi butunlay boshqa hududlarga ishlash uchun chiqib ketgan, 2000-2010 yillarda esa mintaqasi mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish sabab, mintaqasi mamlakatlarida o’zaro migratsiya aylanmasi 18 million kishini tashkil etgan, 2010-2019 yillar mobaynida esa 59 million migrant mintaqasi mamlakatlarining u yoki bu hududlarida mehnat qilgan, bundan ko’rinib turibdiki, Afrika va Sahroi kabir mamlakatlarida yaqin qo’shni bo’lgan mamlakatlarga borib ishlashi oxirgi yillarda o’sib bormoqda.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining ja’dal sur’atlarda rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri demografik omildir. Migratsiyaning demografik nazariyasi sotsiolog D. Messi nomi bilan bog’liq. Uning migratsiyaning tarmoq (sintetik) nazariyasi nomini olgan g’oyasi asosini iqtisodiy bozorning, ijtimoiy va siyosiy integratsiyaning globallashuvi, buning oqibatida mehnat bozorining murakkablashuvi tashkil etadi. Uning fikricha xalqaro migratsiyaga taalluqli bo’lgan joriy jarayonlar bir yo’la bir necha darajada amal qilishi mumkin. Xalqaro migratsiya, D. Messining hisoblashicha, ijtimoiy, iqtisodiy, va siyosiy o’zgarishlar natijasida paydo bo’ladi va rejali iqtisodiyot amal qiladigan hamda qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda kapitalistik munosabatlarning ustunlik qilishiga olib keladi.

Umumiy bozor va kapitalistik munosabatlarga global o'tish natijasida an'anaviy iqtisodiy ijtimoiy aloqalar uziladi, bu odamlarni o'z odatiy turmush tarzidan siqib chiqaradi va iqtisodiy boyishning yangi yo'llarini izlashga majbur qiladi. Shuning uchun migratsiya oqimlari zich joylashgan mintaqalarda emas, balki bozor transformatsiyasi sodir bo'layotgan va uning global iqtisodiyotiga qo'shilayotgan joylarda paydo bo'ladi. Ya'ni “migratsiya bozorning kamchiligi emas, aksincha, uning o'zgarishi natijasidir”<sup>6</sup>. Hozirgi vaqtda G'arbiy Yevropada aholining qarib borish muammosi mavjud. Ushbu hududda 2004-yilda aholining har oltinchisi 65 yoshda bo'lgan bo'lsa, 2020 yilda har beshinchisi, 2050 yilda har to'rtinchisi, balkim har uchinchisi ham shu yoshda bo'ladi va ularning jami aholi sonidagi ulushi esa 50 foizdan ortib ketadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi aholisining 30-45 foizi, 55-64 yoshda mehnat bozoridan chiqib ketmoqda, 65-69 yoshli aholining ichida esa 10 foizigina ishlamoqda, bu esa iqtisodiy faol aholining qisqarib borishiga aylanmoqda<sup>7</sup>. Natijada 65 yoshdagi aholi bilan mehnatga layoqatli aholining o'zaro nisbati 1995 yil 1/3 dan 2050 yilda 1/2 ga ko'tarilib ketadi. Bu siljish ishchi kuchining mehnat resurslariga nisbatan kamomadi sezilishini keskin kuchaytiradi.



**3-rasm. Mintaqada xalqaro muhojirlarning 1990-2019 yillardagi ulushi,(foizda)<sup>8</sup>.**

Ushbu tahlillarni mintaqalar bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, Xalqaro migrantlar aholi soniga nisbatan Okeaniya mamlakatlari, Shimoliy Amerika va Yevropada ko'pchilikni tashkil etadi 3- rasm.2019 yil Okeaniya mamlakatlarining

<sup>6</sup> Massey D.S. Social structure, household strategies, and the cumulative causation of migration, population Index, 56(1). – N.Y., 1990. – P.26.

<sup>7</sup> Кокшаров А. Европа на игле миграции // Эксперт. – М., № 37.– С. 21. – Buhaqidaqarang. Vaxobov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibaqiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar / O'quv qo'llanma. – T., 2015. –B.632.

<sup>8</sup>International migration report. United Nations, New York 2019.

23,2 foizini muhojirlar tashkil qilgan. Shimoliy Amerika va Yevropada mos ravishda 16,0 va 12,0 foizni tashkil etmoqda. Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyo mintaqasida o’rtacha hisobda xalqaro muhojirlar o’rtacha 9,4 foizni tashkil qilgan.

Qolgan to’rtta hududda muhojirlar mintaqasi, umumiy aholining 1-2 foizini tashkil etdi. 1990 va 2019 yillar oralig’ida Xalqaro muhojirlarning umumiy aholi sonidagi ulushi, Shimoliy Amerikada 6,0 foizga, Yevropa va Okeaniyada 4,0 foizga, Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyoda 3,0 foiz punktga ko’paydi. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasida mos ravishda 0,4 va 0,2 foiz punktga oshgan. Ushbu oltita mintaqada xalqaro muhojirlar soni umumiy aholiga nisbatan tezroq o’sdi, bundan farqli o’laroq, xalqaro migrantlarning umumiy aholi sonidagi ulushi G’arbiy Sahro va Afrika mamlakatlarida 0,5 foizga, Markaziy va Janubiy Osiyoda 1,1 foiz punktga kamaygan. Bundan ko’rinib turibdiki, ushbu mintaqalarda umumiy aholi muhojirlarga nisbatan tug’ilish darajasi tezroq ko’paygan va ushbu yirik mintaqasi mamlakatlarida migrantlarning xorijiy mamlakatlarda ishlashi oshib borgan.


Xalqaro migratsiya global hodisadir, dunyodagi qator rivojlangan mamlakatlar oldidagi arzon ishchiga bo’lgan talabni butunlay qamrab olib, ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining o’sishiga ham olib keldi, 2019 yilda atigi 20 ta davlat barcha xalqaro muhojirlarning uchdan ikki qismini qabul qildi, shundan 10 tasida, xalqaro muhojirlarning 50 foizi yashagan.

Xalqaro migrantlarni eng ko’p qabul qiluvchi AQShda 2019 yilda 51 million muhojir mehnat qilgan, yoki dunyo umumiy muhojirlarining 19 foizini tashkil etdi. Ikkinchi va Uchunchi yirik mamlakatlar Germaniya va Saudiya Arabistonida 13 millionga yaqin muhojirlar ishlagan bo’lsa, Rossiya Federatsiyasida 12 million, Buyuk Britaniyada 10 milliondan ortiq xalqaro muhojirlar mehnat qilib kelmoqda. Dunyo bo’yicha xalqaro muhojirlarni qabul qiladigan 20 ta mamlakatning yettitasi Yevropada, to’rttasi Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyoda, uchitasi Markaziy va Janubiy Osiyoda, ikkitasi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerikada, bittasi Okeaniya joylashgan. Xalqaro muhojirlar 1990 va 2019 yillarda dunyoning 169 mamlakatida mehnat qilgan bo’lib shundan 60 mamlakatda xalqaro muhojirlar kamayib bordi, aksincha o’z faoliyatini boshqa rivojlangan mamlakatlarga o’zgartirib bordi, qariyb 20 yillar davomida AQShda migrantlar soni muttasil ravishda o’sib borgan, 1990 yildan 2019 yillargacha 27,4 million xalqaro muhojirlar kelib qo’shilganligi ko’rishimiz mumkin.

2019 yilda Xorijlik muhojirlarni qabul qiluvchi ikkinchi yirik mamlakat Saudiya Arabistoni qayd etildi, hozirda qirolikda 8,1 million xorijlik muhojir mehnat qilmoqda, keyingi o’rinlarda BAA 7,3 million, Germaniya 7,2 million, va Buyuk Britaniyada 5,9 million muhojirlar mehnat qilgan.



Bundan farqli ravishda 1990 va 2019 yillarda Pokistonda xalqaro migrantlar soni 3,0 million kishiga kamaydi. Ikki tomonlama migratsiya yo’laklari 1990 yildan 2019 yilgacha sezilarli darajada o’sdiqariyb 30 yillik davr mobaynida xalqaro migratsiya harakatining yirik 10 ta yo’laklari tahlil qilinganda(rasm),migrantlar harakati turli davrlarda iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko’ra oqim o’zgarib borgan. Mana shu davr mobaynida 10 mamlakatlar o’rtasidagi global migratsiya harakati dunyo migrantlari sonining yarmini tashkil etgan 1990 yildan 2010 yillargacha bo’lgan davrda Meksikalik migrantlarning AQSh tomon harakati yiliga o’rtacha 500 mingga atrofida bo’lgan. Keyingi 10 yillikda Meksikadan AQShga migrantlar harakati keskin qisqarib borgan.



**4-rasm. Xalqaro muhojirlarning 1990-2019 yildagi 30 yillik davr mobaynidagi 10 ta eng yirik yo’laklarining 3 ta davr bo’yicha tahlili (mln kishi)<sup>9</sup>.**

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida AQSh xalqaro migrantlarni qabul qiluvchi eng yirik mamlakat sifatida saqlanib qolgan, AQShga 30 yil davomida Meksika, Xitoy, Hindiston va Filippinlik migrantlarning boshqa mamlakatlarga nisbatan, oqimi yuqori bo’lgan. O’rganilayotgan davr mobaynida xalqaro muhojirlarni qabul qilgan ikkinchi yirik mamlakat Germaniya bo’ldi, ushbu mintaqaga uchta davrda Polsha, Rossiya va Qozog’istondan jami 2 millionga yaqin, muhojir kirib borgan. Janubiy Yevropaning ba’zi mamlakatlari xususan, Italiya va Ispaniyaga Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan asosan Rumiyan migrantlar oqimi yuqori bo’lgan.

Xalqaro migratsiya oqimining ortib borishi, iqtisodiy sabablardan ko’ra, siyosiy sabablari ko’proq bo’ladi, tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, 2010-2019 yillar

<sup>9</sup>International migration report. United Nations, New York2019.

mobaynida xalqaro migrantlar oqimi iqtisodiy sabablaridan ko’ra, siyosiy sabablari ko’proq bo’lganligini kuzatdik, Mana shu davr mobaynida Suriyadan Turkiyaga 4,3 millionga yaqin muhojir kirib kelgan, yana 1,3 million muhojirlar esa qo’shni Livanga kirib bordi. shu qatori Janubiy Sudandan, Ugandaga 1,2 million muhojir o’tgan bo’lsa, 2016 yilda Myanmalik 800 mingga yaqin musulmon qochqinlar, mamlakatdagi diniy cheklovlar va siyosiy vaziyat sabab qo’shni Ugandaga siyosiy qochqin migrant sifatida ko’chib o’tishga majbur bo’ldi. Venusueladagi 2017 yilgi iqtisodiy inqiroz va mamlakatdagi siyosiy mojoralar sabab, qo’shni Kolumbiya va Peruga 1,7 million muhojirlar ko’chib o’tdi.

Oxirgi yillarda BMTning, qochoqlar masalasi bo’yicha byurosi, Xalqaro mehnat tashkiloti va inson huquqlari bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar vakillarini xalqaro migratsiya bilan birgalikda qochoqlar masalasini hal etish imkoniyotlarini qidirmoqda, Butun dunyo bo’yicha 2017 yilda 29 millionga yaqin qochoqlar ro’yxatga olingan bo’lib, shundan 83 foizi kam rivojlangan mamlakatlarda istiqomad qilgan va 17 foizi rivojlangan mamlakatlar fuqoralari hisoblanadi.

2019 yilda xalqaro muhojirlar 48 mamlakatda yoki mintaqadagi jami aholining 20 foizni tashkil etdi, bu guruhga aksariyat aholisi kam bo’lgan davlatlar asosan, Fors ko’rfazidagi BAA, Qatar, Quvayt, Bahrayn, Ummon shuningdek Avstraliya, Kanada, Lyuksemburg va Shaveytsariya kabi mamlakatlarni kiritishimiz mumkin. Xalqaro migrantlar dunyoning o’rta daromadli 94 mamlakatida 10 foizni tashkil etdi, 119 mamlakatda esa xalqaro muhojirlar umumiy aholining 5 foizini tashkil etgan bo’lsa, qolgan 39 mamlakatda esa xorijdan kelgan muhojirlar umumiy aholining bor yo’g’i 1 foizini tashkil etgan. Oxirgi 1 foizlik muhojirlarni qabul qiluvchi mamlakatlar guruhi bu asosan yirik aholiga ega bo’lgan Xitoy, Hindiston va Braziliya kabi mamlakatlardir. 2019 yilda xalqaro migrantlarning uchdan bir qismi o’nta mamlakat hissasiga to’g’ri keladi.

Hozirgi paytda eng ko’p migrantlarni eksport qiluvchi mamlakatlar guruhida Hindiston yetakchi bo’lib, hindistonliklarning 17,5 million aholisi xorijda ishlaydi, keyingi o’rinlarda Meksika 11,8 million, Xitoy 10,7 million, Rossiya Federatsiyasi 10,6 million va Suriyaliklarning 8,2 millioni xorijda ishlamoqda.

Jahon miqyosida kechayotgan global ishsizlik va mehnat migratlari bilan yuzaga kelayotgan turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muammolarni kamaytirish va migrantlarning kasb-malaka va mehnat qilish faoliyatidagi samaradorligini oshirishda dunyo mamlakatlari guruhi va xalqaro tashkilotlar quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq;

- dunyo mamlakatlari tizimida mehnat muhojirlari masalalari bilan shug’ullanish uchun yetarli darajada kadrlarni yetishtirishi yoki qayta o’qitishi kerak;

- turli mintaqalarda mehnat qilayotgan har-bir ishchi migrant ish beruvchining ijtimoiy sug’urtasi bilan qoplanishi lozim;

-ishchi kuchini ishchi kuchini jo’natuvchi donor mamlakatlar va qabul qiluvchi ritsipiyent mamlakatlar ish beruvchi va yollanma ishchilarniekspluatatsiya qilishni oldini olish uchun hukumatlar darjasida kelishuvga erishilishi maqsadga muvofiq;

-ishchilar o'z mamlakatlarida mikromoliyalashni qaytib kelganda qanday boshlash haqida rag'batlantirishi va o'qitilishi kerak. Biror ishchi mikrocreditlash loyihasida ishtirok etishga yordam beradigan xalqaro tashkilot bilan aloqada bo'lishi mumkin;

-har bir mamlakat o'z fuqoralarini mamlakatda qolishini rag'batlantirish maqsadida ish o'rinlarini tashkil etish va ishsizlik muammosini hal etishga mo'ljallangan iqtisodiy strategiyani qabul qilishlari kerak.

- xorijdagi ishchi migrantlarimizning oylik ish haqlarini qayta investitsiyalash tizimini ishlab chiqish;

- ishchi kuchi eksporti siyosatini xalqaro standartlar va milliy qonunchilik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish va h.k.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining “O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qonuni

2. D.V.Rasulova.Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. Monografiya:. –T., 2010.

3. Qodirova Z.A Globallashuv sharoitida O'zbekistonning Xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvi. Monografiya:. T., Iqtisodiyot–2016.–152 b.

4. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – М.: Диалог-МГУ, 1999. – 367 с.

5. Bauer, T. & Zimmermann, K. Integrating the East: The Labor Market Effects of Immigration / American Institute for Contemporary German Studies, 1995. Papers 5. – P.32-43

6.International migration report. United Nations, New York 2019.

7. [www.IOM.org.com](http://www.IOM.org.com) – Xalqaro mehnat tashkilotining rasmiy sayti

8. [www.ILO.org.com](http://www.ILO.org.com) - Xalqaro migratsiya tashkilotining rasmiy sayti